

## МАКТАНГАЧА YOSHDA GI BOLARNI NUTQINI O'STIRISHDA HIKOYALARNING AHAMIYATI

**Abdullayeva Feruza Akramovna**

Oltiariq sanoat tehnikumi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda hikoya eshitish va aytishning muhim vazifalari haqida fikr yuritiladi. Hikoyaning turlari va bolani o'z fikrini erkin bayon etishda hikoya usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, og'zaki metod, ijodiy, qayta hikoya, hotira, ijodiy, xayoliy uydurma, ertak to'qish.

### Annotation

This article reflects on the important tasks of hearing and telling the story when growing the speech of preschool children. The types of the story and the methods of the story are covered in the Free statement of the child's opinion.

Keywords: story, oral method, creative, retelling, hotira, creative, fictional fiction, fairy tale weaving.

### Аннотация:

В данной статье рассматривается важная роль слушания и рассказывания историй в развитии речи детей дошкольного возраста. Освещаются виды историй и методы их рассказа, способствующие свободному выражению мыслей ребенком.

Ключевые слова: рассказ, устный метод, творческий, пересказ, память, воображение, вымысел, сочинение сказок.

## KIRISH

Hikoya -o'quv materialini bolalar uchun tushunarli tarzda bayon etish imkonini

beruvchi og'zaki metodlardan biri.

Hikoya so'zlab berish-eshitgan badiiy asar yoki ko'rgan rasmini, biror voqea hodisalarni ravon qilib so'zlab berishdir.

Hikoyada turli mazmundagi bilimlar obrazli shaklda taqdim etiladi. Bolalar uchun hikoyalar kundalik voqealar, yil fasllari, yozuvchilar, rassomlar, ona shahri haqida bo'lishi mumkin. Hikoya qilish uchun material sifatida badiiy asarlardan foydalanish mumkin.

Mazmun bo'yicha hikoyalarni ikki turga bo'lish mumkin.

Hayotiy voqealarga asoslangan daliliy hikoyalar. Masalan: ko'rib turgan rasmini, bo'lgan hodisani, ko'rib turgan predmetini, o'yinchoqlarni tasvirlash kabilar yani hotira bo'yich tasvirlash kiradi.

Ijodiy hikoyalar, yani bola tomonidan o'ylab topilgan ertak yoki hikoyalar (uydirma) kiradi. Bunda bolaning shahsiy tajribasi ham ishga solinadi.

Kichik guruhlarda bola berilgan savolga javob bera oladi.

O'rta guruhda tarbiyachi tomonidan aytilgan hikoyani qayta hikoya qilishga harakat qiladi, (to'htalgan joyida tarbiyachi hikoya yuzasidan savol beradi).

Katta va maktabga tayyorlov guruhlarda muntazam mashg'ulotlar o'tkazilgani natijasida bala ko'rgan rasmi, eshitgan hikoyasi, bo'lgan voqealarni hikoya qilib bera oladi.

## МУНОКАМА НАТИЈАЛАРИ.

Hikoyani tushunish qobiliyati, ya'ni tinglay olish, mazmuniga munosabat bildirish, savollarga javob berish, oddiy qayta aytib berish uch yoshdan boshlab paydo bo'ladi. Kichik guruhlarda hikoya ko'rgazmali materiallarni (narsa-buyumlar, ulaming tasviri) namoyish qilish bilan birga qo'shib olib boriladi. Ko'rgazmali materiallardan bolalar tasavvurga ega bo'lmagan voqea-hodisalar haqida hikoya qilinganda o'rta va katta maktabgacha yosh guruhlarida ham foydalaniladi. Biroq, katta guruhlarda hikoya qilish jarayonida ko'rgazmali materiallardan keragidan ortiqcha foydalanish tavsiya etilmaydi. Chunki bolalarni so'z yordamida fikrlashga o'rgatish, ularda fazoviy tasavvurini rivojlantirish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyalarning uchta turini ko'rsatish mumkin:

- qabul qilinishiga qarab aytiladigan hikoyalar (bolaning hikoya paytida nimani ko'rayotganligi haqida hikoya);
- xotira asosida hikoya qilish (bola hikoya aytish paytida nimalarni qabul qilganligi haqida hikoya);
- tasavvur asosida hikoya qilish (o'ylab topilgan hikoya).

Qabul qilish va xotira asosidagi hikoyalar faktli materiallarga asoslangan bo'lib, bolalar faktlarni bayon qiladilar.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha hikoyalar turlari ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda tavsiflash, bayon qilish yoki shunchaki mulohaza yuritish sifatida bajarilishi mumkin.

Masalan, tarbiyachi to'tiqushlar haqida mashg'ulot o'tkazib, bolalarga hikoya qilib berishni topshirishdan oldin to'tiqushlar haqida savollar beradi:

- To'tiqushning patlari qanaqa rangda?

- To‘tiqush patlari uning hamma yerida bir xil ko‘rinishdami? Dumi, boshidagi patlari qanday? Qayerida uzunroq, qayerida kaltaroq?
- Idishga suv solib qafasga qo‘yamiz, qushlar nima qiladi, cho‘miladimi, uchadimi?
- Qushlar qanday uchadi, bir-birining patini nega cho‘qiydi, nima uchun shoxdan-shoxga qo‘nadi?
- Qafasning ichiga don, tuxum, tvorog, sabzi, olma solamiz. To‘tiqushlarimiz ularning qaysi birini xush ko‘rib yeydi?

Bu savollar vositasida bolalar qushlar bilan ishlashga o‘rganadilar.

Savollar natijasida bolalar nutqiga yangi so‘zlar qo‘shish va lug‘at boyliklarini oshirish, nutqini ravonlashtirish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda bolaning nutqini o‘stirishda hikoyaning ahamiyatli tarafi juda katta o‘rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi tarafidan qayta hikoya qilish jarayonida, tarbiyachining bolaga e‘tibori, bos silkish bilan bola so‘zlarini tasdiqlash, uni rag‘batlantirish bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida kichik guruhdan boshlab bolani hikoya qilishga o‘rgatish, maktabga tayyorlov guruhida bola o‘z fikrini keng ifoda etishga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi.

(Darslik). - T.: «Barkamol fayz media»,

Maktabgacha ta‘limga qo‘yiladigan Davlat talablari. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vazirining 2017 yil 9 iyundagi 5-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlanib,

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 17 iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2898.

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirining 2016 yil 30 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-2707-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar rejasi» to'g'risidagi 315-son buyrug'i.